

10-Biologiya (31-34 mavzular)

1. Gibridoma haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
 A) *antitana sintezlovchi limfotsit hujayrasi kloni bilan rak hujayrasi klonini sun'iy sharoitda alohida ko'paytirish gibridoma deyiladi*
 B) *miyeloma va rak hujayralari qo'shilib gibridoma olinadi va ular sun'iy ko'paytirilib monoklonal antitana sintezlaydi*
 C) *antitana sintezlovchi limfotsit hujayrasi bilan rak hujayrasini bir biriga qo'shish natijasida olingan*
 D) *sichqonga antigen yuqqanda taloq hujayralarida faqat bir xil antitana sintez qiluvchi splenotsitlar hosil bo'ladi*
2. Agrobakteriumning Ti plazmidiga Eco RI restriktazasi bilan ishlov berilishi natijada, shu plazmid 10 bo'lakka ajralgan bo'lsa, plazmid tarkibidagi jami uzilgan vodorod bog'lar (a), Eco RI restriktazasi soni (b) va shu plazmidga Eco RI restriktaza sayti (c)ning sonini aniqlang.
 A) *a-80; b-10; c-10* B) *a-72; b-9; c-9*
 C) *a-80; b-10; c-9* D) *a-72; b-10; c-10*
3. Agrobakterium Ti plazmididagi shish hosil qiladigan irsiy modda molekulasini tarkibini aniqlang.
 1) A+riboza+H₃PO₄; 2) U+ riboza+ H₃PO₄;
 3) G+ riboza+H₃PO₄; 4) A+dezeksoriboza+H₃PO₄;
 5) S+riboza+H₃PO₄; 6) T+dezeksoriboza+H₃PO₄;
 7) S+dezeksoriboza+H₃PO₄;
 8) G+dezeksoriboza+H₃PO₄;
 A) *1,2,3,5* B) *4,6,7,8*
 C) *1,2,5,6* D) *3,4,7,8*
4. ... usulida g'ozada tola uzunligi va gullashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bir necha genlar funksiyasi to'xtatilishiga erishildi, hamda yuqori agromomik ko'rsatkichli g'ozada navlari olindi?
 A) *hujayra muhandisligi*
 B) *gen muhandisligi*
 C) *gen-nokaut*
 D) *gen faolligini o'zgartirish*
5. ... (1) tomonidan tuproq va yerosti suvlarida to'planib qolgan pestitsid qoldiqlarini parchalab zararsizlantiruvchi ... (2) bakteriyasi shtammidan shu funksiyalarini bajaruvchi genlar guruhini g'ozada tomiri tolachalari sathida yashovchi ... (3)bakteriyasiga ko'chirib o'tkazdi.
 A) *1-Sh. S. Azimova; 2-pseudomonas; 3-rizosfera*
 B) *1-O. T. Odilova; 2-pseudomonas; 3-rizosfera*
 C) *1-Sh.S. Azimova; 2-E. coli; 3-pseudomonas*
 D) *1-O. T. Odilova; 2-pseudomonas; 3-E. coli*
6. Tarkibida dezoksiriboza mavjud bo'lgan tuzilmalar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
 1) adenozindifosfat; 2) transpozon; 3) pBR – 322;
 4) plazmid; 5) AMF; 6) Bam HI; 7) agrobakterium genomi; 8) Eco RI.
 A) *3,5,7* B) *3,4,7*
 C) *2,5,6* D) *1,6,8*
7. Reduplikatsiya mahsuloti bo'lgan moddalarni aniqlang.
 1) Eco RI; 2) transmissibl plazmid; 3) Bam HI;
 4) pBR-322; 5) Ti; 6) Hae III
 A) *1,4,6* B) *1,5,6*
 C) *2,3,6* D) *2,4,5*
8. Quyidagi kashfiyotlarni ularni aniqlagan olimlar bilan juftlang.
 1) yangi organlar yaratish texnologiyasi; 2) yuksak hayvonlar klonini yaratish biotexnologiyasi; 3) sun'iy ravishda rekombinant DNK olish va genlarni klonlash; 4) transduksiya jarayoni; 5) transformatsiya hodisasi; a) N.Jinder va F Lederberg; b) 1944-yilda O.Everi; c) 1928-Griffit; d) 1972-yilda Boyer va Koen; f) 1977-yili J.Gyordon; g) 1997-yil Roslin instituti olimlari;
 k) 1998-yil J.Tomson
 A) *1-j; 2-f; 3-d; 4-g; 5-c*
 B) *1-k; 2-f; 3-d; 4-a; 5-c*
 C) *1-k; 2-g; 3-d; 4-a; 5-c*
 D) *1-k; 2-f; 3-d; 4-g; 5-c*
9. Insonlardagi turli irsiy kasalliklarni odam hujayralariga funksional genlarni kiritish orqali davolash texnologiyasi nima deb ataladi?
 A) *gen muhandisligi*
 B) *genlar terapiyasi*
 C) *yangi organlar yaratish biotexnologiyasi*
 D) *genlar biotexnologiyasi*
10. Nonda qaysi aminokislotalar yetishmaydi?
 A) *lizin, triptofan, metionin*

- B) *lizin, triptofan, argenin*
 C) *leysin, triptofan, argenin*
 D) *leysin, triptofan, metionin*
11. Qaysi biologik fanlarning rivojlanishi tufayli birmuncha murakkab bo'lgan, o'ta nozik va unumli zamonaviy biotexnologiyaga asos solindi?
 A) *biokimyo, mikrobiologiya*
 B) *selleksiya, biotexnologiya*
 C) *botanika, biokimyo, mikrobiologiya*
 D) *genetika, biokimyo, mikrobiologiya*
12. Terak o'simligining tabiiy kloni to'g'ri berilgan qatorini toping?
 A) *gul* B) *qalamchalar*
 C) *parxesh* D) *jingalak*
13. Gen-nokaut nima?
 A) *gen faoliyatini kuchaytirish*
 B) *genlarning faolligini genni o'chirib qo'yish orqali boshqarish*
 C) *genlarning faolligini genni o'chirib qo'yish orqali kuchaytirish*
 D) *genlarning faolligini genomni o'chirib qo'yish orqali boshqarish*
14. Noto'g'ri fikrni aniqlang.
 A) *gen daktiloskopiya-genning DNK o'lchamiga ko'ra noma'lum shaxsni aniqlash*
 B) *asos hujayralar-embriional hujayralarga o'xshash, hali u qadar takomillashmagan hujayralar to'plamidan iborat*
 C) *Fin Dorset qo'y zoti hisoblanadi*
 D) *sun'iy ravishda recombinant DNK olish va genni klonlash ilk bor 1972-yilda AQSH olimlari Boyer va Koen tomonidan amalga oshirilgan*
15. O'nlab xavfli yuqumli va irsiy kasalliklarning gen muhandisligi tashxisi biotexnologiyasini qaysi olimlar ishlab chiqqan?
 A) *R. S. Muhamedov; O. S. Sodiqov*
 B) *B. Irisboyev; G. Hamidullayeva*
 C) *R. S. Muhamedov; B. Irisboyev*
 D) *G. Hamidullayeva; O. S. Sodiqov*
16. Tarkibida dezoksiriboza (a) va riboza (b) saqllovchi moddalarni aniqlang.
 1) sitozin nukleotidi; 2) uratsil nukleotidi; 3) pBR-322 ning timininli nukleotidi; 4) bakteriofagning adeninli nukleotidi; 5) adenoindifosfat; 6) adenozinmonofosfat; 7) transpozoning adeninli nukleotidi.
- A) *a-4,7; b-1,6* B) *a-2,3; b-1,4*
 C) *a- 2,5; b-3,4* D) *a-5,6; b-2,7*
17. Zamonaviy biotexnologiya ni sanoat miqyosida ko'paytirib, ular biomassasidan insonlar uchun zarur bo'lgan moddalar – olish yo'nalishlarida rivojlanib bormoqda.
 A) *o'simliklar, fermentlar, gormonlar, vitaminlar*
 B) *mikroorganizmlar, fermentlar, kraxmal, vitaminlar*
 C) *mikroorganizmlar, fermentlar, gormonlar, vitaminlar*
 D) *hayvonlar, fermentlar, gormonlar, oziqabop oqsillar*
18. To'g'ri fikrni aniqlang.
 A) *bakteriyalar genomiga odam oshqozon osti bezidan olingan insulin garmonini kiritish orqali biologik faol va toza bo'lgan insulin gormonini sintezlash mumkin*
 B) *bakteriyalar genomiga o'sish gormoni genini kiritish bilan somatotropin gormonini ko'plab miqdorda ishlab chiqarish mumkin*
 C) *olimlar aniqlashicha, nonda oqsil miqdori ko'p*
 D) *nonda lizin, triptofan, argenin yetishmaydi*
19. Antitana sintezlovchi limfosit hujayrasi bilan cheksiz bo'linuvchi rak hujayrasini bir-birga qo'shish natijasida olingan hujayra nima deyiladi?
 A) *kallus to'qima* B) *gibridoma*
 C) *genlarni klonlash* D) *vektor konstruktsiya*
20. Qaysi usuldan foydalanib gibridoma hujayrasini olish biotexnologiyasi yaratildi?
 A) *gen injeneriyasi*
 B) *hujayra injeneriyasi*
 C) *xromosoma injeneriyasi*
 D) *DNK tuzilishini o'rganish*
21. Qaysi javobda keltirilgan nukleotidlar izchilligini HpaI restriktazasi tanib kesadi?
 A) *G-S* B) *A-S*
 C) *T-A* D) *G-A*
22. Qaysi olimlar hayvonlar klonini yaratishda o'z xissalarini qo'shishgan?
 a) J. Gyordon; b) Roslin; c) J. Tomson;
 d) I. Abdukarimov; e) Keler; f) Milshteyn; j) Koen
 A) *j,k* B) *c,d*
 C) *e,f* D) *a,b*

23. AQSh qishloq xo'jaligi va mexanika universiteti biotexnologiya markazi bilan hamkorlikda qanday genlar ajratib olingan?

- A) *poliedr virusi genlari*
- B) *rizosfera bakteriyasi genlari*
- C) *bug'doyning gullashini boshqaradigan*
- D) *g'ozaning gullashini boshqaradigan*

24. Plazmidga misol keltiring.

- A) *pBR-322*
- B) *Hae III*
- C) *ligaza*
- D) *Eco RI*

25. S-shtamm uchun xos bo'lgan hususiyatlarni aniqlang

- A) *avtotrof organizm*
- B) *endoplazmatik to'rga ega*
- C) *geterotrof organizm*
- D) *hujayra markazi ikkita sentrioladan tashkil topgan*

26. Qaysi javobda agrobakteriumga xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) ichakda uchraydi; 2) tuproqda yashaydi; 3) g'o'za tomiri tolachalari sathida yashaydi; 4) genlari to'xtovsiz ishlab turadi; 5) tuproqdagi gerbitsid va pestitsid qoldiqlarini zararsizlantiradi; 6) tarkibida Ti plazmid mavjud; 7) translyatsiya jarayonini amalga oshiruvchi organoidi mavjud; 8) ayrim turlari transgen o'simlik olishda foydalaniladi; 9) hujayra po'sti mureindan iborat; 10) hujayra po'sti pektindan iborat.

- A) *1,4,6,7,9*
- B) *2,4,6,7,8,9*
- C) *3,5,8,10*
- D) *3,4,5,6,10*

27. Quyidagilardan qaysilari ribosomada hosil bo'lgan? 1) Eco RI; 2) RSS 101; 3) Bam HI;

- 4) HpaI; 5) Ti; 6) Pbr-322; 7) E. coli
- A) *2,5,7*
- B) *3,5,6*
- C) *2,4*
- D) *1,3,4*

28. Quyidagilardan qaysilari yot genetik material sifatida hujayraga kiradi (a), qaysilari yot genetik materialni parchalab tashlashi (b) mumkin?

- 1) Eco RI; 2) RSS 101; 3) Bam HI; 4) HpaI;
- 5) Ti; 6) pbr-322; 7) E. coli.
- A) *a-1,3,5; b-2,4,6*
- B) *a-2,5,6; b-1,3,4*
- C) *a-2,5,7; b-3,4,6*
- D) *a-2,4,6; b-1,3,5*

29. Qaysi moddalarning tarkibida DNK mavjud?

- 1) Eco RI; 2) RSS 101; 3) Bam HI; 4) Hae III;
- 5) Ti; 6) pbr-322; 7) E. coli
- A) *2,5,6,7*
- B) *2,4,5,7*
- C) *1,3,4,6*
- D) *3,5,6,7*

30. Qaysi moddalarning tarkibida aminokislotalar mavjud?


- 1) Eco RI; 2) RSS 101; 3) Bam HI; 4) HpaI;
- 5) Ti; 6) pbr-322; 7) E. coli
- A) *1,3,4*
- B) *3,5,6,7*
- C) *1,4,6*
- D) *2,5,6*



KITOB UCHUN MUROJAT



KITOB UCHUN MUROJAT



KITOB UCHUN MUROJAT